

KUZGI BUG'DOY YETISHTIRISHNING AYRIM ELEMENTLARINI DON HOSILDORLIGIGA TA'SIRI.

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1092>

Adashev Ilxomjon Qobulovich

Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim laboratoriya mudiri
<https://orcid.org/0009-0001-7255-442X>

ANNOTATSIYA

Maqolada kuzgi bug'doy navlarini yetishtirishning ayrim elementlari, ekish muddatlari va ko'chat me'yorlarini don hosildorligiga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Kuzgi bug'doyning Davr, Zvezda, Pervitsa hamda Zimnitsa navlari uchun eng maqbul ekish muddati va me'yorlari aniqlanganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Kuzgi bug'doy, nav, tuproq, ekish muddati, me'yor, sentner, hosildorlik.

Аннотация: В статье представлена информация о влиянии некоторых элементов выращивания сортов озимой пшеницы, сроков посева и стандартов рассады на урожайность зерна. Установлено, что определены наиболее оптимальные сроки посева и стандарты для сортов озимой пшеницы «Давр», «Звезда», «Первица» и «Зимница»

Ключевые слова: озимая пшеница, сорт, почва, период посева, норма высева, центрифуга, урожайность

KIRISH

Bug'doy (*Triticum aestivum*) dunyo aholisining yarmidan ko'pi uchun asosiy oziq-ovqat maxsuloti hisoblanadi. Bugungi kunda "Bug'doy dunyo bo'yicha 220 million gektardan ziyod maydonga ekilib, 772 million tonnadan ziyod hosil olinib kelinmoqda. Dunyoda bug'doy eksport qiladigan 6 yetakchi davlat bo'lib, Bular, Rossiya, Kanada, AQSh, Avstraliya, Ukraina, Yevropa Ittifoqi hisoblanadi. Rossiya bug'doy eksporti bo'yicha dunyoda 1 o'rinda turadi." Ushbu davlatlarda bugungi kunda yuqori va sifatli don hosili olishda maqbul muddat va me'yorlariga to'la amal qilinishi natijasida yuqori don hosili olishga erishilmoqda. Shuning uchun respublikamizda har bir ekilayotgan istiqbolli, yangi navlarnieng maqbul ekish muddatlari va me'yorlarini aniqlash hamda ishlab chiqarishga keng joriy etish eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagi va boshqa omillarni hisobga olgan holda Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot Institutining tajriba dalasida kuzgi yumshoq bug'doyning maxalliy Zvezda, Davr va xorijiy Pervitsa Zimnitsa navlarini uch xil ekish muddati 15.09, 1.10, 15.10, hamda uch xil ko'chat qalinliklarida 4-5-6 mln dona unuvchan urug' ekib, ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

tajriba tizimi 36 ta variantdan iborat bo'lib, 3 takrorlanishda bir yarusda joylashtirildi. Tajriba dalasida egat kengligi 60 sm, uzunligi 50 m. har bir bo'lakcha maydoni 240 m², shundan hisobga olinadigan maydon 120 m² ni tashkil etib, tajribalarning umumiy maydoni 2,6 gektar. Tajriba 3 yil davomida 1:1 (g'alla: dukkakli ekinlar) qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimida uchta dalada olib borildi. Tajribada kuzgi bug'doyning Davlat resstriga kiritilgan "Davr", "Zvezda", "Pervitsa" va "Zimnitsa" navlarida tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Tajribada kuzgi bug'doyning "Davr", "Zvezda", "Pervitsa" va "Zimnitsa" navlarini uch (15-sentabr, 1-oktabr, 15-oktabr) muddatda uch xil ekish (4,0 mln/ga, 5,0 mln/ga, 6,0 mln/ga) meyorlarda ekib o'rganildi.

1-jadval. Tajriba tizimi

Var.	Kuzgibug'doynavlari				Urug'ekishmud datlari	Urug'ekishme'yor i, mln dona/ga
1	Davr	Zvezda	Pervitsa	Zimnitsa	15-sentabr	4,0
2						5,0
3						6,0
4					1-oktabr	4,0
5						5,0
6						6,0
7					15-oktabr	4,0
8						5,0
9						6,0

Kuzgi bug'doyning maxalliy navlaridan Zvezda, Davr, xorijiy navlardan Pervitsa Zimnitsa navlarini uch xil muddat va uch xil ko'chat qalinliklarida tajribalar olib borilib, navlarni har tamonlama o'rganilib, hosildorligi bo'yicha quyidagi jadvalda ma'lumotlar keltirildi.

Tajribadan olingan natijalar tahlilari shuni ko'rsatadiki, kuzgi bug'doyning "Davr" navi urug'lari 15-sentabr muddatida gektariga 4,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 1-variantda don hosildorligi 60,4 s/ga, somon hosili esa 64,4 s/ga ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu muddatda gektariga 5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 2-3 variantlarda don hosili 61,4-60,1 s/ga ni, tashkil etganligi aniqlandi.

Kuzgi bug'doy navlari 1-oktabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan variantlarda kuzgi bug'doyning don 15-sentabr muddatida gektariga 4,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 1-variantga nisbatan 4-variantda don hosildorligi 0,4 s/ga, 15-sentabr muddatida gektariga 6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 3-variantga nisbatan esa 6-variantda don hosildorligi 0,4 s/ga, gacha kamayib borganligi kuzatilgan bo'lsa, 15-sentabr muddatida gektariga 5,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 2-variantga nisbatan 5-variantda don hosildorligi 1,9 s/ga, yuqori bo'lganligi aniqlandi. Kuzgi bug'doy urug'lari 15-oktabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 7-8-9 variantlarda, 15-sentabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 1-2-3 variantlarga nisbatan don hosildorligi mos ravishda 0,8-1,9-2,1 s/ga, kuzatildi

Tajribada kuzgi bug'doyning "Zvezda" navi urug'lari 15-sentabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 10-11-12 variantlarda don hosildorligi o'rtacha 55,3-55,8-53,6 s/ga, somon hosili esa mos ravishda 59,0-60,8-55,7 s/ga ni tashkil etib, kuzgi bug'doy navlari 1-oktabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 13-14-15 variantlarda, 15-sentabrda gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 10-11-12 variantga nisbatan don hosildorligi 2,5-5,2-4,8 s/ga, somon hosildorligi esa tegishli ravishda 0,1-3,9-5,3 s/ga yuqori bo'lganligi kuzatilgan bo'lsa, urug'lari 15-oktabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 16-17-18 variantlar, 15-sentabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 10-11-12 variantlarga nisbatan mos ravishda 1,6-2,0-3,7 s/ga gacha qo'shimcha don hosili olishga erishilgan bo'lsada, somon hosildorligi 16-17 variantlarda 1,8-0,3 s/ga gacha kamayib borganligi hamda 18-variantda esa 3,3 s/ga oshib borganligi aniqlandi.

Kuzgi bug'doyning "Pervitsa" navi urug'lari 15-sentabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 19-20-21 variantlarda don hosildorligi 58,6-62,9-62,7 s/ga,

somon hosildorligi 60,9-68,6-66,8 s/ga ni tashkil etgan bo'lsa, kuzgi bug'doy navlari 1-oktabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 22-23-24 variantlardan olingan donhosildorligi, 15-sentabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 19-20-21 variantlarga nisbatan 22-variantda don hosildorligi 3,7 s/ga, somon hosildorligi esa 4,1 s/ga yuqori, 23-variantda don hosildorligida o'zgarish kuzatilmagani holda somon hosildorligi 2,0 s/ga kam, 24-variantda esa don hosildorligi 2,8 s/ga, somon hosildorligi mos ravishda 5,5 s/ga kam bo'lganligi kuzatildi.

Tajribada o'rganilgan kuzgi bug'doy navlari 15-oktabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 25-26-27 variantlardan olingan don va somon hosildorligi o'rganib chiqilganida esa 15-sentabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 19-20-21 variantlarga nisbatan don hosildorligi 2,6-3,0-3,5 s/ga, somon hosildorligi esa tegishli ravishda 4,6-6,0-5,9 s/ga gacha kamayib borganiligi aniqlandi.

2-jadval. Kuzgi bug'doy navlarining don va somon hosildorligi

№	Kuzgibug'doy navlari	Urug'ekishmuddatlari	Urug'ekish hme'yori, mln dona/ga	Don hosildorligi, s/ga			O'rtacha don hosildorligi, s/ga
				2015 yil	2016 yil	2017 yil	
1	Davri	15-sentabr	4,0	65,0	53,5	62,7	60,4
2			5,0	61,0	58,9	64,4	61,4
3			6,0	61,3	56,1	62,9	60,1
4		1-oktabr	4,0	59,6	56,3	64,1	60,0
5			5,0	66,1	58,2	65,5	63,3
6			6,0	61,4	55,5	62,1	59,7
7		15-oktabr	4,0	61,8	52,4	64,6	59,6
8			5,0	58,1	54,6	65,8	59,5
9			6,0	57,7	53,3	63,9	58,3
10	Zvezda	15-sentabr	4,0	57,1	53,1	55,8	55,3
11			5,0	54,9	54,9	57,5	55,8
12			6,0	53,8	51,5	55,4	53,6
13		1-oktabr	4,0	60,0	56,1	57,2	57,8
14			5,0	67,3	57,6	58,1	61,0
15			6,0	64,4	55,1	55,8	58,4
16		15-oktabr	4,0	60,0	53,1	57,5	56,9
17			5,0	61,0	53,7	58,6	57,8
18			6,0	62,8	52,5	56,6	57,3
19	Pervitsa	15-sentabr	4,0	63,0	52,1	60,8	58,6
20			5,0	72,6	54,5	61,7	62,9
21			6,0	76,6	51,0	60,4	62,7
22		1-oktabr	4,0	67,5	56,8	62,7	62,3
23			5,0	66,1	58,7	63,8	62,9
24			6,0	64,4	55,2	60,1	59,9
25		15-oktabr	4,0	51,2	54,9	61,8	56,0
26			5,0	59,1	56,7	63,9	59,9

27			6,0	60,2	55,3	62,1	59,2
28	Zimnitsa	15-sentabr	4,0	60,4	62,3	56,7	59,8
29			5,0	74,2	63,4	52,7	63,4
30			6,0	65,2	61,2	52,4	59,6
31			4,0	54,1	59,6	59,7	57,8
32		1-oktabr	5,0	58,3	61,0	59,8	59,7
33			6,0	62,5	58,0	56,7	59,1
34			4,0	53,0	54,8	59,9	55,9
35		15-oktabr	5,0	56,7	56,3	60,4	57,8
36			6,0	57,9	55,1	58,1	57,0

Kuzgi bug'doyning "Zimnitsa" navi urug'lari 15-sentabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 28-29-30 variantlardan yig'ishtirib olingan don hosildorligi uch yilda o'rtacha 59,8-63,4-59,6 s/ga, somon hosildorligi esa 63,8-69,2-62,0 s/ga ni tashkil etgan bo'lsa, urug'lar 1-oktabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan

urug' hisobida ekilgan 31-32-33 variantlarda 15-sentabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 28-29-30 variantlarga nisbatan don hosildorlik 2,0-3,7-0,5 s/ga, somon hosili 4,7- 5,9-0,4 s/ga, urug'lar 15-oktabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 mln dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 34-35-36 variantlarda esa 15-sentabr muddatida gektariga 4,0-5,0-6,0 dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 28-29-30 variantlarga nisbatan don hosildorlik 3,9-5,6-2,6 s/ga, somon hosildorligi tegishli ravishda 7,5-8,7-3,3 s/ga gacha kamayib borganligi qayd etildi.

Tajriba variantlaridan olingan natijalarga asoslanib xulosa qilishimiz mumkinki, har bir navni ekish muddatlari ularning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda esa birinchi navbatda ekilayotgan navning vegetatsiya davrining davomiyligini bilish va shunga bog'liq holda ekish muddati va urug' sarf me'yorini aniqlash yuqori va sifatli hosil yetishtirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlarimizda ham yuqoridagi qonuniyatlar o'z aksini topganligi kuzatilib, yuqoridagi qonuniyatlar takrorlanganligi qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda har bir yangi navni o'zini agrotexnikasini ishlab chiqish, har bir navni o'z vaqtida maqbul ko'chat qalinligini tanlab sifatli urug'lik ekish bilan hosildorlikni 5-7 s/ga ortishi ilmiy tadqiqot natijalarida aniqlandi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.Egamov, I.Adashev, X.Rasulov "Kuzgi bug'doyni ekish muddatlarining don hosildorligiga ta'siri". Agro ilm jurnali. Toshkent. 2012 y. №2(22). 26-27 bet.
2. X.Bozorov, B.Holliqov. "Kuzgi bug'doy namlik va ildiz tizimi". Agroilm, 4 (36), Toshkent. 2015 yil. 25 bet.
3. I.Egamov, I.Adashev, G.Mamadaliyeva. M.Ataboeva. "Kuzgi bug'doy navlarining o'sish rivojlanishi hamda hosildorligiga ekish muddati, me'yorlarini ta'siri". Agroilm, 2-3(34-35), Toshkent. 2015 yil. 20 bet.
4. R.Siddiqov, S.Saidov "Kuzgi imkon-yozgi xirmon" O'zb. q/x. № 9, Toshkent. 2016 yil, 12 bet.
5. R.I.Siddiqov, I.Egamov, A.Mansurov, N.Yusupov., "Respublikada ekishga tavsiya etilgan kuzgi bug'doy navlarining tavsifi hamda ularni innovatsion texnologiyalar asosida yetishtirish" bo'yicha tavsiyalar Andijon 2018 y